

SURXON DAVLAT QO'RIQXONASI HUDUDIDA TARQALGAN PAPAVER L. TURKUMIGA MANSUB TURLARNING BIOLOGIYASI

D.J. Qarabayeva - Termiz davlat universiteti Botanika kafedrası katta
o'qituvchisi

Y.E.Qulto'rayeva - Termiz davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya: *Papaver* L. turkumiga mansub o'simliklar morfologik va ekologik moslashuvchanlikka ega ekanligi shuningdek, uning tibbiyotdagi va oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati, barglari va novdalari xalq tabobatida ko'plab kasalliklarni davolashda ishlatiladi, shu bilan birga, ularning oзуqaviy qiymati ham yuqori va cho'l yaylovlarini rekultivatsiya qilishda istiqbolli halofit o'simliklar sifatida ilmiy baholanadi. *Papaver* L turkumining yer yuzida 64 ta turi [11], O'rta Osiyoda 9 ta turi [7], O'zbekistonda 5 ta turi [3], Surxon davlat qo'riqxonasi hududida 2 ta turi tabiiy holda tarqalgan bo'lib quyida ushbu turlarning biologiyasi haqida alohida to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: *Papaver* L., dorivor, turkum, tur, sho'rlangan, adir, yaylov, qo'riqxona, flora, rekultivatsiya.

Аннотация: Растения, относящиеся к роду *Papaver* L., обладают морфологической и экологической приспособляемостью, а также имеют важное значение в медицине и пищевой промышленности. Их листья и стебли широко используются в народной медицине для лечения различных заболеваний. Кроме того, они обладают высокой питательной ценностью и научно оцениваются как перспективные галофитные растения для рекультивации пустынных пастбищ. В мире насчитывается 64 вида рода *Papaver* L. [11], в Средней Азии — 9 видов [7], в Узбекистане — 5 видов [3], а на территории Сурхонского государственного заповедника в природных условиях распространены 2 вида. Ниже подробно рассматривается биология этих видов.

Ключевые слова: *Papaver* L., лекарственные, род, вид, засоленные, предгорья, пастбище, заповедник, флора, рекультивация.

Biology of Species Belonging to the Genus *Papaver* L. Distributed in the Territory of the Surkhan State Reserve

D.J. Qarabayeva – Senior Lecturer at the Department of Botany, Termez State University

Y.E. Qulto‘rayeva – Student at Termez State University

Annotation: Plants of the genus *Papaver* L. have morphological and ecological adaptability, as well as its importance in medicine and the food industry, its leaves and branches are used in folk medicine for the treatment of many diseases, at the same time, their nutritional value is also high, and they are scientifically evaluated as promising halophytic plants for the reclamation of desert pastures. There are 64 species of the genus *Papaver* L. on Earth [11], 9 species in Central Asia [7], 5 species in Uzbekistan [3], and 2 species are naturally distributed in the territory of the Surkhan State Reserve.

Keywords: *Papaver* L., medicinal, genus, species, saline, foothill, pasture, reserve, flora, reclamation.

Kirish: Surxon davlat qo‘riqxonasi Pomir-Oloy tog‘ tizmasining Janubi-G‘arbiy qismi hisoblangan Ko‘hitang tizmasining sharqiy yonbag‘rida joylashgan. Ma‘muriy jihatdan Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududiga qarashli. Qo‘riqxona hududi shimoldan Tangidara soyi bilan chegaralanadi. Sharqiy chegarasi Xatak, Xo‘janqo, Qizilolma, Shalqon, Kampirtepa, Sherjon va Vandob qishloqlari bilan, janubiy hududi Xo‘jaikon tuz koni bilan tutashib ketgan. Ko‘hitang tizmasining g‘arbiy yonbag‘ri Turkmaniston Respublikasining hududi bo‘lib, Koytendag qo‘riqxonasi joylashgan. Surxon qo‘riqxonaning umumiy yer maydoni 24554 ga bo‘lib, murakkab geomorfologik tuzilishga ega. Hudud chegarasining janubdan shimolga umumiy uzunligi taxminan, 70 km ni tashkil etadi va dengiz sathidan

850-3137 m balandliklarda joylashgan. Oʻrtacha suv ayirgʻich balandligi shimolda (Xatakboʻlimi) 2682 m, markaziy qismida 3137 m (Kampirtepa boʻlimining Ayribobo choʻqqisi) hamda janubiy qismida 2361 m ni (Vandob boʻlimi) tashkil etadi [4].

Surxon davlat qoʻriqxonasi florasida boʻyicha turli yillarda bir qator botanik olimlar, jumladan, S.A. Nevskiy [6], K.Sh. Tojibaev [8], F.O. Xasanov [9], A.J. Ibragimovlar [4] tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Qoʻriqxona hududida tarqalgan ushbu turkumga mansub boʻlgan 2 ta tur: *Papaver litvinovii* Fedde. va *Papaver pavonium* Schrenk.

***Papaver pavonium* Schrenk. - Tovus koʻknori yoki lolaqizgʻaldoq**

Bir yillik, boʻyi 15–30 sm gacha yetadigan, shoxlangan, pastki qismi koʻpincha oʻtsimon boʻlgan oʻsimlik. Barglar boshqa turlarga oʻxshash, biroq oxirgi segmentlari oʻtkirroq boʻlib, apikal boʻlagi choʻzilgan va biroz tishli yoki kesilgan. Pastki yuzasi, ayniqsa bargning oʻrta tomri boʻylab, nisbatan zichroq tuklar bilan qoplangan. Gullari diametri 2–4 sm boʻlib, koʻpincha 3 tadan guruhlarda joylashgan, soxta soyabonga oʻxshash. Gullar qirmizi yoki quyruq qizil rangda, asosida qora dogʻlari boʻladi. Gulpoyasi odatda yuqoridagi turlarga nisbatan qisqaroq, kosachasi tuxumsimon-yumaloq yoki keng ellips shaklda boʻlib, uzunligi 5–10 mm, eni 6–10 mm. Tuksimon, yoysimon koʻtarilgan, uzunligi 1–1,5 mm, keng asosli, oq tusli tuklar bilan qoplangan. Har bir kosachaning uchidagi shoxi aniq koʻzga tashlanadi yoki deyarli yoʻqolgan boʻlib, uzunligi 3 mm gacha, chiziqli yoki qisqa uchburchak shaklda, koʻpincha ozgina farqlanadi. Gulbarglari 20–25 mm uzunlikda, deyarli bir xil kenglikda, tuxumsimon-yumaloq shaklda, asosida qora dogʻli va yorqin qizil rangda boʻladi. Changchiliklari urugʻchidan uzunroq yoki unga teng. Changchi ipchalari chiziqli, changdonlari taxminan 1 mm uzunlikda, choʻzinchoq va biroz yuraksimon asosli. Mevasi – kapsula shaklida, keng tuxumsimon yoki yumaloq, uzunligi 5–8 mm, eni 4–6 mm, zich, toʻsiqsimon, koʻtariluvchi holatda. Sargʻish

rangda bo'lib, 2–3 mm uzunlikdagi tuklar bilan qoplangan. Urg'uchisi disk shaklida, 6 nurlidir, kapsulaning kengligidan biroz qisqaroq bo'ladi. Diskdan chiqmaydigan, qisqa nurlarga ega. Urug'lari juda kichik.

***Papaver litwinowi* Fedde. - Litvinov ko'knorisi**

O'simlik bir yillik, ikki yillik yoki ko'p yillik bo'ladi. Ular chandiqli gullarga ega. Ildizi ildizpoya shaklida, poyasi oq, to'q sariq yoki qizil rangda. Poya mavjud bo'lsa, barglar ham uchraydi. Barglari rozetsimon shaklda, bandli. Poyadagi barglar navbat bilan joylashgan. Quyi barglar bandli, yuqori barglar yarim bandli yoki bandsiz bo'ladi. Ba'zan qisqichsimon tuzilishga ega. Barg pichoqlari butun, pat shaklida bo'lingan yoki ajralgan bo'ladi. Cheti silliq, tishli, qisqichli yoki kesilgan. Gullari yakka yoki to'pgul hosil qiladi, to'pgullari simoz shaklda. Gullari yakka, juft yoki uchtdan, uzun gul bandida yoki poyaning yuqori qismida joylashgan. Kurtaklar tik turadi. Guli ikki dona tojbarg va to'rt dona gulbargdan iborat. Changchilari ko'p. Urg'uchi uchdan ortiq karpellardan tashkil topgan. Changdon bir bo'limli bo'lib, ba'zida ko'p qirrali ko'rinish oladi. Urg'uchilik nishonchalari disk shaklida joylashgan va radial holatda. Mevasi kapsula shaklida tik holatda, teshikli yoki qisqa klapanli, stigmatik disk ostida joylashgan, ba'zida bargli. Urug'lari ko'p sonli, mayda, chuqurchali tuzilishga ega.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Surxon davlat qo'riqxonasi hududida tarqalgan *Papaver L.* turkumiga mansub dorivor o'simliklar o'zining ekologik moslashuvchanligi, morfologik xilma-xilligi va foydali xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida o'rganilgan *Papaver litwinowi* Fedde. Va *Papaver Pavoninum* Schrenk. kabi o'simliklar nafaqat og'ir ekologik sharoitlarda yashashga moslashgan, balki inson salomatligi uchun muhim bo'lgan biologik faol moddalarga ham boy ekani aniqlandi. *Papaver L.* turkumiga mansub o'simliklar Surxon davlat qo'riqxonasi kabi tabiiy hududlarda bioxilma-xillikni saqlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va

bioresurs sifatida undan oqilona foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Kelgusida bu o'simliklarning farmakologik xossalarini, genetik resurslarini hamda agrotexnik yetishtirish imkoniyatlarini chuqur tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuldasheva Z. K., Karabaeva D. J. The effect of a biostimulator on the growth, development and yield of oily sunflower / "International Journal on Integrated Education" 2020. 157-160
2. Yuldasheva Z. K., Karabaeva D. J. Effect of biostimulator on the vegetation period of oily sunflower / «International journal for innovative engineering and management research» 2020. 122-125.
3. Yuldasheva Z. K., Karabaeva D. J. The effect of different doses of different biostimulants on the yield of oily sunflower. OP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1142 (2023) 012097 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/1142/1/012097
4. Ибрагимов Акрам Жавлиевич. Сурхон Давлат Қўриқхонасининг Флораси (Қўхитанг Тизмаси), Дис канд. биол. наук., Тошкент-2010.
5. Inom Juramurodov, Rustam Uralov. Assessment of plant diversity in the Surkhan-Sherabad Region, Uzbekistan by grid mapping.
6. Невиский. К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботаник географическое невиский С.А. Материалы к флоре Кугитангтау и его предгорий. В кн. Флора и систематика высших растений – М., Л.: Изд. АН СССР, 1937– С.
7. Определитель растений Средней Азии. Т.4. Ташкент Фан, 1974.
8. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана // Ботанический журнал, т. 101, вып. 10, 2016. – С. 1105-1132.

9. Хасанов Ф.О. Краткий очерк растительности Кугитанга // Тез. докл. юбил. науч. конф. молодых ученых и спец-тов посев 60-летию ЛКСМ Узб-на, 1985. – С. 167-168.